

RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **15,5 trln. so'm**, o'sish sur'ati **102,7 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 15484,3 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va


ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 14817,0 mlrd.so'mni (102,5 %), o'rmon xo'jaligi – 575,9 mlrd.so'mni (103,3 %), baliq xo'jaligi – 101,7 mlrd.so'mni (128,3 %) tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Parkent (104,6 %), Quyichirchiq (104,6 %) va Zangiota (103,8 %) Qibray tumanlarda (103,7 %) kuzatildi. Yangiyo'l (98,1 %) Olmaliq (98,6%) Chirchiq (100,1 %) Angren (100,2 %) shaharlarda esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Bekobot tumanining ulushi 10,0 %ni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, Bo'stonliq va Zangiota tumanlari mos ravishda 7,9 % va 7,7 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyo'l shahar (0,1 %), Nurafshon shahar (0,2 %) va Ohangaron shahar (0,2 %) shaharlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 103,3 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 102,2 %ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 70,3 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,5 % – fermer xo'jaliklariga, 9,2 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar- sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6932,0 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 47,2 %ni tashkil qildi.




**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati %da</i>
Don ekinlari	554,6	119,6	488,6	116,8	20,3	94,5	45,7	192,0
Kartoshka	263,8	95,5	26,5	63,2	230,9	99,7	6,3	225,2
Sabzavotlar	776,5	100,3	146,9	79,5	598,7	105,7	30,9	134,6
Poliz	29,9	51,0	4,3	28,1	24,3	57,7	1,3	99,4
Meva va rezavorlar	92,9	100,6	34,7	79,8	55,0	116,7	3,2	109,0
Uzum	90,8	101,7	37,5	84,5	51,6	119,1	1,7	106,1

Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 554,6 ming tonna (119,6%) don ekinlari ishlab chiqarildi, 263,8 ming tonna (95,5 %) kartoshka kavlab olindi, 776,5 ming tonna (100,3 %) sabzavotlar, 29,9 ming tonna (51,0 %) oziqbop poliz, 92,9 ming tonna (100,6 %) mevalar va rezavorlar, 90,8 ming tonna (101,7 %) uzum yig'ib olindi.


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 87,5 %, sabzavotlarning 77,1 %, polizning 81,3 %, mevalar va rezavorlarning 59,2 %, uzumning 56,8 % ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 88,1 % ular hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (tonna)




Kartoshka (tonna)




Sabzavotlar (tonna)




Poliz (tonna)



Mevalar va rezavorlar (tonna)



Uzum (tonna)



Chorvachilik




2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7764,8 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,2 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 52,8 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 195,4 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 102,7 %ga ko'p), 716,4 ming tonna sut (103,6 %ga), 970,4 mln.dona tuxum (101,6 %ga), 2,0 ming tonna jun (103,2 %ga) ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	195,4	102,7	8,5	102,4	163,5	100,2	23,4	124,2
Sut, ming t	716,4	103,6	38,0	103,0	650,2	102,2	28,2	151,5
Tuxum, mln. dona.	970,4	101,6	21,5	56,9	495,4	105,2	453,4	101,5
Jun, ming t	2,0	103,2	0,3	106,5	1,7	102,6	0,06	105,8
Asal, tonna.	267,1	104,3	24,0	104,3	211,0	102,9	32,1	113,8
Baliq, ming.tonna	7,7	129,7	1,5	104,1	0,01	117,5	6,2	137,6


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 83,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 90,8 %i, tuxumning 51,0 %i, junning 83,3 %i, Asalning 79,0 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga Baliqning 80,2 %i Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go'sht (ming t)




Sut (ming t)




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Tuxum (ming. dona)




Jun (tonna)



Asal (tonna)



Baliq (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 820,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 385,9 ming boshga, qo'y va echkilar– 949,1 ming boshga, parrandalar – 15203,1 ming boshga etdi.


2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar boshsoni – 8,3 ming boshga (1,0 %ga), shu jumladan sigirlar– 2,3 ming boshga (0,6 %ga), qo'y va echkilar – 16,2 ming boshga (1,7 %ga), parrandalar – 614,1 ming boshga (4,2 %ga) ko'paydi.

2019 yilning 1 oktyabr holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	820,7	101,0	69,4	101,8	711,1	100,7	40,2	105,5
shu jumladan sigirlar	385,9	100,6	22,5	105,0	352,1	99,9	11,6	113,7
Qo'y va echkilar	949,1	101,7	271,2	101,1	641,1	101,0	36,8	122,4
Parrandalar	15203,1	104,2	414,5	49,1	8169,2	95,8	6619,4	126,9

2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,5 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 86,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 28,6 %i fermer xo'jaliklariga, 67,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 2,7 %i fermer xo'jaliklariga, 53,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 43,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi




Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yilning 1 oktyabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shundan, sigirlar (ming bosh)



Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)





Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 71-230-86-68
- 71-230-86-69